

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2023- yil 1- yanvar holatiga 3482,6 ming kishini tashkil etib, 2022-yil boshidan 74,3 ming kishiga ya'ni 2,2 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1492,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,9 %), qishloq aholisi soni 1990,3 ming kishini (57,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2022- yil yanvar-dekabr oylarida

- Aholi soni **74,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **98,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **17,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **32,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **3,5 ming nafarni** tashkil etdi

2022-yilning
yanvar-dekabr oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
3 408 345 kishi
(2022- yil 1- yanvar holatiga)



98,3 *ming bola*

Tug'ilganlar soni



17,0 *ming kishi*

O'lganlar soni



9,1 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar
soni



16,2 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar
soni

Doimiy aholi soni
3 482 570 kishi
(2023- yilning 1- yanvar holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2023- yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qashqadaryo viloyati	3 482,6	1 492,3	1 990,3
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	289,6	289,6	-
Shahrisabz sh.	144,9	144,9	
<i>tumanlar:</i>			
Yakkabog‘	217,2	51,0	166,2
Dehqonobod	156,3	29,6	126,7
Qamashi	286,8	68,1	218,7
Qarshi	265,4	96,3	169,1
Koson	304,6	160,2	144,4
Kitob	276,3	103,1	173,2
Mirishkor	126,8	47,8	79,0
Muborak	91,8	73,1	18,7
Nishon	162,7	98,2	64,5
Kasbi	208,3	80,4	127,9
Ko‘kdala	181,6	28,9	152,7
Chiroqchi	262,5	75,1	187,4
Shahrisabz	231,1	55,7	175,4
Yakkabog‘	276,7	90,3	186,4

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni (1- yanvar holatiga ming kishi)

	2021- y.	2022- y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da</i>
Qashqadaryo viloyati	3408,3	3482,6	102,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	283,2	289,6	102,3
Shahrisabz sh.	142,7	144,9	101,5
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	212,4	217,2	102,3
Dehqonobod	153,1	156,3	102,1
Qamashi	280,6	286,8	102,2
Qarshi	259,4	265,4	102,3
Koson	297,5	304,6	102,4
Kitob	271,2	276,3	101,9
Mirishkor	124,1	126,8	102,2
Muborak	90,3	91,8	101,7
Nishon	159,2	162,7	102,2
Kasbi	204,0	208,3	102,1
Ko'kdala	X	181,6	X
Chiroqchi	432,0	262,5	60,8
Shahrisabz	227,6	231,1	101,5
Yakkabog'	271,0	276,7	102,1


Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2021- y.	2022- y. ¹⁾	o'lish, kamayish	2021- y.	2022- y. ¹⁾
Tug'ilganlar	97079	98339	1260	28,8	28,5
O'lganlar	14981	17017	2036	4,4	4,9
Tabiiy o'lish	82098	81322	-776	24,4	23,6
Nikohlar	30582	32239	1657	9,1	9,4
Ajralishlar	2867	3472	605	0,9	1,0

Tug'ilish darajasi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 98 339 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (97 079 kishi) nisbatan 1 260 kishiga yoki 1,3 foizga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 28,5 promilleni tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (28,8 promille) nisbatan 0,3 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-dekabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Qarshi shahrida 19,1 dan 24,2 promillega, Yakkaboqda 23,9 dan 24,9 promillega Chiroqchida 31,6 dan 35,7 promillega ko'payishi kuzatilgan.


¹⁾ dastlabki ma'lumot

Tug'ilish. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 98,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tug'ilganlarga faqat tiriktug'ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 28,5 promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 28,8 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti
(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida)




O'lim darajasi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida o'lganlar soni 17017 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (14981 kishi) nisbatan 2036 kishiga yoki 13,6 foizga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil qildi (2021yilning yanvar- dekabr oylarida 4,4 promille).

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O'lim koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Dehqonobodda (4,0 dan 5,7 promillega), Shahrisabzda (4,3 dan 5,5 promillega), Muborakda (4,3 dan 5,8 promillega), Qarshi shahrida (4,8 dan 5,5 promillega) va Qarshida (5,0 dan 6,5 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 32,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 9,4 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti


(2022- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

(2022- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2022- yilning yanvar-dekabr oylari FHDYO organlarida 32 239 ta nikohlar va 3472 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 9,4 ta nikoh (2021- yilning tegishli davrida 9,1 ta) va 1,0 ta ajralishlar (2021- yilning tegishli davrida 0,9 ta) to‘g‘ri kelgan.



Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
Qashqadaryo viloyati	30582	32239	2867	3472
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	2487	2557	380	462
Shahrisabz sh.	1053	1083	207	259
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	1952	2142	136	132
Dehqonobod	1511	1527	76	81
Qamashi	2394	2787	180	254
Qarshi	2474	2525	252	346
Koson	2635	2870	186	174
Kitob	2101	2395	269	331
Mirishkor	1101	1129	64	91
Muborak	836	862	63	81
Nishon	1618	1602	149	186
Kasbi	1832	1898	107	176
Ko‘kdala	X	1358	X	74
Chiroqchi	4300	2925	258	264
Shahrisabz	1766	2056	247	257
Yakkabog‘	2522	2523	293	304

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9138 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 16235 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2021- yilning yanvar-dekabr oylarida	2022- yilning yanvar-dekabr oylarida
	Ko'chib kelganlar	11580	9138
	Ko'chib ketganlar	20726	16235
+ -	Migratsiya saldosi	-9146	-7097

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 7097 kishiga (2021- yilning shu davrida minus 9146 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Yakkabog' (minus 1112), Qamashi (minus 1093) va Chiroqchi (minus 1031) tumanlarida kuzatilgan.


Yanvar-dekabr oylarida

Soni, ming kishi

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda

² dastlabki ma'lumot




Viloyat markazidagi demografik holat



Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2023- yil 1-yanvar holatiga 289,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 6,5 ming kishiga yoki 2,3 % ga oʻsgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 8,5 ming bola tugʻilganligi qayd etilgan boʻlib, mos ravishda tugʻilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 29,7 promilleni tashkil etdi (2021- yilning mos davrida 23,9 promille boʻlgan).

FHDYO organlarida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 2557 ta nikoh va 462 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,9 promilleni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan teng (2021- yilning mos davrida 8,9 promille boʻlgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,6 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega koʻpaydi. 2021- yilning mos davrida 1,4 promille boʻlgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-dekabr holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

